Sport ta’lim muassasalarida rahbarlik mahorati

Xasanov Abduraxim Xasanovich
Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha
mutaxassislarni ilmiy-metodik
ta’minlash, qayta tayyorlash va
malakasini oshirish markazi dotsenti,
tarix fanlari nomzodi,
Telefon:+998(97)4202553
Telegramm:998(97)1469552
Yusupxanova F.A. UzDSA “Parasport
va umumkasbiy fanlar kafedrasi dotsent v.b.
Telefon:+998(90)9367912
Telegramm:998(90)9367912

Annotatsiya: Tezisda sport ta’lim muassasasi rahbaridan pedagogik odob va axloq egasi bo‘lish, tadbirkor, talabchan, mustahkam irodali bo‘lishi talab etilishi ko‘rsatilgan. Rahbar faqat boshliq emas, balki murabbiy ham bo‘lishi bilan birga, o‘zini ishonchli odam, ishchan va epchil xizmatchi sifatida ko‘rsata olishi, xayrixohlik bilan hamsuhbatini tinglay olishi, o‘zining sabrsizligini, ayniqsa, beparvoligini va suhbatdoshni yoqtirmasligini sezdirmasligi kerak bo‘lishi ta’kidlangan.
Kalit so‘zlar: pedagogik odob va axloq, odob-axloq qoidalari, psixologik muhit, siyosiy ong va tafakkur egasi, axborotlashuv davri, boy ma’naviy dunyo, yuksak aql-zakovat sohibi, Vataniga fidoiylik, “dohiylik kasali”, nafs balosi.

Hozirgi davr sport ta’limi muassasasi rahbaridan pedagogik odob va axloq egasi bo‘lishini, tadbirkor, talabchan mustahkam irodali ekanligini ko‘rsata olishini talab etadi. Ayniqsa, rahbar shaxs O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 2 martdagi 62-sonli “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori”ning mazmun-mohiyatini to‘liq bilishi va ta’lim muassasasi jamoasi o‘rtasida o‘rganishni tashkil etishi lozim.

Binobarin, rahbar faqat boshliq emas, balki murabbiy ham bo‘lishi bilan birga, o‘zini ishonchli odam, ishchan va epchil xizmatchi sifatida ko‘rsata olishi, xayrixohlik bilan hamsuhbatini tinglay olishi, o‘zining sabrsizligini, ayniqsa, beparvoligini va suhbatdoshni yoqtirmasligini sezdirmasligi kerak bo‘ladi. Shuningdek, rahbar sport maktabida murabbiylar bilan to‘g‘ri munosabatni o‘rnata bilishi, qarindosh - urug‘chilik va oshna - og‘aynigarchilikka yo‘l qo‘ymasligi, xodimlarning hayotiy muammolarini yechishga yordam berishi, moliyaviy masalalarda haqguy va beg‘araz bo‘lishi, psixologik muhit (iliq ruhiy iqlim)ni yarata olishi va jamoada hamkorlikni yo‘lga qo‘ya olishi ayni muddaodir.

Sport ta’limi muassasasi rahbarining ish uslubi, omilkorligi va tadbirkorligi O‘zbekiston rivojlanishining bugungi yangi sifat bosqichi talablariga mos kelishi darkor, undan tashabbuskorlik va eng muhimi ijodiy fikr yuritish qobiliyati talab qilinadi. Rahbar boshqalarga o‘rnak bo‘ladigan shaxsiy sifat va fazilatlar bilan birga yuksak bilimga, siyosiy ong va tafakkur egasi bo‘lishi, adolatli va kamtarin inson bo‘lishi, sezgir va e’tiborli bo‘lib, pedagogik jamoa, ota- onalar, jamoatchilik fikrini ilg‘ay olishi, keng dunyoqarashli, izlanuvchan, ilg‘or g‘oyalarga ijobiy baho beruvchi shaxs bo‘lishi ham talab etiladi.

Sport ta’limi muassasasi rahbari muloqotda o‘z qarorini bildiribgina qolmay, jamoaga ta’sir ko‘rsatishi, ularda qarorni yaxshiroq bajarish uchun tashabbus va xohish uyg‘ota olishi zarur.

Rahbarning qo‘pol gapirishi, baqirishi, so‘kinishi qat’iyan man qilinadi. Chunki uning shaxsiy obro‘si ko‘p jihatdan o‘z fikrini qay tarzda bildirishiga, qanday so‘zlashiga ham bog‘liq. Rahbar pedagogik intuitsiya, odob, nazokat egasi bo‘lishi lozim.

Rahbar bugungi axborotlashuv va tez o‘zgaruvchan davrni, o‘zgarishlarni tez anglab yetishi va ularga vaqtida javob berishi juda ahamiyatlidir. Bugungi kunning rahbari bilimli, o‘qib-uqib olgan, har bir soha bilimlarini muntazam egallay oladigan, o‘zi uchun yangilik yarata oladigan, ma’naviy dunyosi qanchalik boy bo‘lsa, jamoa hayoti mazmunan shunchalik boy va qiziqarli bo‘ladi.

Endi rahbar kadrlarga qo‘yilgan asosiy talablar yoki rahbar qanday bo‘lishini har bir qadamda eslatib turadigan quyidagi sifatlarga e’tibor beraylik:

-Rahbar ko‘ngli ochiq, qalbi va ko‘ngli toza, yuksak aql-zakovat sohibi, salohiyatli va har tomonlama shakllangan bo‘lishi kerak;

-Rahbar o‘zini tarbiya qilgan, bilim va mahorat bergan, ishonch bildirib, yuksak martabaga munosib ko‘rgan el-yurtiga halol xizmat qilishi, zimmasidagi masuliyatni doimo xis qilib yashamog‘i kerak;

-Rahbar aqlli, tajribali, o‘z ishining bilimdoni bo‘lgan mutaxassislarga tayanmog‘i, ularning fikriga quloq solmog‘i va shunga asoslanib xulosa chiqarmog‘i lozim;

-Rahbarning barcha ishlari xodimlar hayotiga ijodiy ta’sir ko‘rsatmog‘i kerak. Kimlargadir yaxshi ko‘rinishi, maqtanish uchun qilingan ish rahbarni obro‘sini to‘kadi;

-Rahbarda xalqi va Vataniga fidoiylik, tashabbuskorlik, qa’tiyat va talabchanlik bo‘lishi shart. Talabchanlikni zo‘rovonlikka, kat’iyatni manmanlikka aylantirish o‘ta kaltabinlikdir. Manmanlik, zo‘rovonlik, o‘zgalar fikriga qo‘lok solmaslik rahbar kadrlarni yaxshi mutaxassislar, fidoiylar, sodda va samimiy odamlardan uzoqlashtirib qo‘yadi. Rahbarning qo‘l ostidagi murabbiy va mutaxassislarni ko‘pchilik oldida shaxsiga tegib haqoratlashi uning ojizligidan, o‘z vazifasiga noloyiqligidan darak beradi;

-Rahbar hech qachon fisqu-fasod, bo‘hton va g‘iybat, maishatbozlikka va axloqsizlikka berilmasligi kerak. Rahbar o‘zidan oldingi rahbarda ishlagan yaxshi mutaxassislarni ishdan bo‘shatishi va o‘ziga raqib deb bilishi achinarli hol bo‘lib, muassasa manfaatlariga jiddiy zarar yetkazadi;

-Rahbar maqtovdan boshi aylanib, “dohiylik kasali”ga chalinib qolmasligi kerak. Chunki bunday rahbarlar atrofida o‘z manfatlarini o‘ylovchi "maslahatgo‘ylar", "amalparast", laganbardor, poraxo‘r, oddiy odamlarga zug‘um o‘tkazuvchi odamlar to‘planib qoladi va oqibatda tashkilot manfaatlariga jiddiy ziyon yetadi.;

-Rahbar nafs balosiga qarshi turmog‘i, o‘z xodimlarini ham bu balodan asramog‘i kerak. Rahbar aslo adolatsizlikka yo‘l qo‘ymasligi, barchani teng ko‘rishi, kadrlarni o‘zininiki yoki begonaga ajratmasligi zarur;

-Rahbar o‘z shaxsiy hayoti va turmush kechirishida ham boshqalarga o‘rnak bo‘lishi, barcha ishlari ochiq va oshkora bo‘lishi lozim va vaqti-vaqti bilan sport ta’limi muassasasi xodimlari oldida hisobot berib turishi rahbarga obro‘ keltiradi;

-Rahbar o‘z g‘oyasi, fikri, harakat dasturiga ega bo‘lishi bilan birga, ta’lim muassasasi xodimlarini ona-yurt taraqqiyotiga, xalqimizning tinch-totuvligi, farovonligi yo‘lida hamda sport sohasini rivojlantirish g‘oyasi atrofida jipslashtirishi shart.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvar Oliy Majlisga Murojaatnomasida “... Biz O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur”, deb ta’kidladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T : O‘zbekiston, 2016.

2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T: “O‘zbekiston”, 2017.–

3. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.: O‘zbekiston, 2017.

4. Mirziyoev Sh.M. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir”. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. 2019 yil 7 dekabr

5. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M.A. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.-T.: Nihol, 2013 279 bet

. 6. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-jild. T.: Ma’naviyat, 1998.-219-220-6.

7. Davletova M. O‘zbekistonda ta’lim qonunchiligining rivojlanishi. T.: TDYuI, 2003.